



PSIXOLOGIYA FANINING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI.

Muxammadiyeva Xulkar Jo'rayevna

*Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani MMTBga qarashli
67- umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda eng rivojlangan fanlardan biri psixologiya fani haqida hamda uning bugungi kundagi o'rni va ahamiyati boraaida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Psixologiya, shaxs, psixolog, xususiyat, psixika, jarayon, qobiliyat, Aristotel.*

Dunyoda har tomonlama yetuk, bilimli insonlarga doir ilmiy izlanishlarga bo'lgan talab tobora oshib bormoqda. Shu bois insonlar xulqiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish va tegishli ilmiy tavsiyalar berishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu esa, insonlarga oilaga psixologik xizmat ko'rsatish, shuningdek har bir shaxsga psixologik konsultatsiya berish orqali, ularda sog'lom ruhiyatni shakllantirish va jamiyatning bo'gini bo'lgan insonlarda psixologik himoya mexanizmini barqarorlashtiruvchi ko'nikmalarni paydo qilish tizimini yanada takomillashtirishni taqazo etmoqda.

Psixologiya fani eng qdimgi fanlardan biri bo'lib, bu fanning rivojlanishi uchun juda ko'p olimlar o'z hissalarini qo'shganlar. Ilk davrlarda yunon faylasufi Aristotel "Ilmiy psixologiya"ga asos solgan. Psixologiya ruh haqidagi ta'limot deb aytib o'tgan. Yana shu kabi olim va faylasuflarning ilmiy izlanishlari natijasida bugungi kundagi psixologiya fani vujudga kelgan va rivojlangan.

Psixologiya fanining o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan muammolari juda xilma-xil bo'lib, u eng avvalo, psixik faoliyatning asosiy qonunini belgilash, uning rivojlanish yo'llarini aniqlash, har bir psixik jarayonning asosida qanday mexanizm borligi, uning o'zgarish jarayonlarini ochib berish masalalarini o'rganadi. "Psixologiya psixik faoliyatning u yoki bu sharoitda qanday ro'yobga chiqqanligini o'rganish bilangina shug'ullanib qolmasdan, bu jarayonlarni qanday boshqarib borish masalalarini ham ilmiy asosda o'rganadi." Shuning uchun ham ilmiy psixologiya boshqa barcha o'rganilayotgan predmetlar orasida eng asosiy fanlardan hisoblanadiki, uning jamiyat rivojlanishi bilan ahamiyati yanada ortib va takomillashib boraveradi.

Hozirgi vaqtda ko'pchilik insonlar psixologiyani bilishi va shu bilan birga ma'lum darajada psixologik bilimlardan va psixologik o'zgarishlardan xabardor bo'lishalari mumkin. Masalan, ijtimoiy muhitdagi har bir inson psixologik ma'lumotlarni har xil internetdan, gazeta va jurnallardan, psixologik kitoblardan olishi mumkin. Shu o'rinda psixologiya so'ziga tarif berib o'tsak, psixologiya so'zining lug'aviy ma'nosi grekcha "psyuxe"- jon, ruh; "logos"- fan degan ma'noni bildiradi. Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi. Psixologiya asosan



psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga kora psixikani yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko'rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xayol, xotira va tafakkur;

Bilish faoliyatlari: diqqat, nutq jarayonlari.

Shaxsning hissiy, irodaviy sohasi: hissiyot, iroda;

Shaxsning individual psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat.

Psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak shuni ta'kidlash lozimki, u oxirgi o'n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Lekin tarixan, umuman psixologiyaning O'zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o'ziga xos tarzda shakllanib kiyolganini ko'rish mumkin. Masalan, eramizning II-III asrlarida rivoj topgan manixizm (asoschisi Mani) yoki mazdakizm (asoschisi Mazdak) va boshqalar o'z diniy qarashlari tizimida ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat va shaxsning o'ziga xosligi kabi g'oyalarni keng tashviqot qilganlar. Lekin tarix bizga shundan darak beradiki, yaxlit, sistematik ijtimoiy psixologik qarashlar sistemasi umuman bo'lmagan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda o'tkazilayotgan psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan. Chunonchi, birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70- yillarning oxiri 80- yillarning boshida I. Yoqubov tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va erxotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi sotsial-psixologik omillarni o'rgandi. Tadqiqot natijasida, shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy xamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir.

Psixologik tadqiqot usullari odamlarning hayotining ma'lum bir davrining tarixiy sharoitida o'zaro munosabatlarida o'zini namoyon qiladigan barcha odamlar uchun umumiy bo'lgan psixologik voqelikning qonuniyatlari mavjudligiga qaratilgan. Hozirgi zamon psixologiya fanida usullardan foydalanish psixik hodisalarni o'rganishga ma'lum psixologik yo'nalishni boshqaradigan ilmiy yondashuv bilan bog'liq. Psixologiyada tasniflash mumkin bo'lgan turli xil psixologik tadqiqot usullari mavjud va umumiy usullarning har biri o'z mohiyatini aniqlaydigan, ammo o'zgartirmaydigan bir qator modifikatsiyalarga ega. Ulardan birini yoki bir nechtasini bir vaqtning o'zida ishlatish, qoida tariqasida, o'rganishga qo'yilgan aniq vazifalar bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon psixologiyasi boyib, turli-tuman bo'lib bormoqda, oxirgi yillarda psixologiyaning yangi sohalari: antropologik psixologiya, akmeologiya, tahdid va terrorizm psixologiyasi, xristianlik psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, davriy psixologiya, biokonstitutsion psixologiya, «buyukshunoslik» psixologiyasi, o'sish psixologiyasi, tirik hayot psixologiyasi, kvant psixologiyasi, tergov psixologiyasi, badiiy qabul etish psixologiyasi, psixologik adabiyotshunoslik, eshitish qobiliyatlar psixologiyasi, ko'zi ojiz kar-soqovlar psixologiyasi, kitobxonlar va kitob psixologiyasi,



mavh etish psixologiyasi, tushlar va tush ko'rish psixologiyasi, sevgi psixologiyasi, inqirozli va xavfli vaziyatlar psixologiyasi, ekzoteratik psixologiya, taqdir psixologiyasi, mutaassiblik psixologiyasi, qobiliyatlar psixologiyasi, xususiylik psixologiyasi, o'quv faoliyat psixologiyasi, ayollar psixologiyasi, tobe hulq-atvor psixologiyasi, genotsid va ommaviy qotilliklar psixologiyasi, xizmat muloqoti psixologiyasi, o'qituvchi psixologiyasi, tashqi ko'rinish psixologiyasi, oliy maktab psixologiyasi, buyruq psixologiyasi, savdo-sotiq psixologiyasi, OAV psixologiyasi, elektoral hulq-atvor psixologiyasi, erkaklar psixologiyasi, din psixologiyasi, tomalogiya, qo'rquv psixologiyasi, o'lim psixologiyasi, muqobil psixologiya va boshqalar faol shakllanib bormoqda. Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o'ziga xos va etakchidir.

Xulosa qilib aytganda psixologiya mavzusini yoritib berishimning asosiy maqsadi shundaki, psixologiya asli inson o'zini anglashda, jamiyatda, oilada va hayotga bol'gan munosabanlarini o'rganishga yordam beradi. Inson umr bo'yi turli bosqichlarni bosib o'tadi, psixik jarayonlar va shaxsning individual psixologik xususoyatlarini umumiy qonuniyatlari nomoyan bo'lish mexanizmlarni aynan psixologiya o'rganadi. Ta'lim olayotgan paytdagi holatlarni ya'ni kishiga ta'lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi. Odamlarning tug'ilganidan to umrining oxirigacha bo'lgan psixik rivojlanish jarayonini shaxsning shakllanishi yosh davrlar psixologiyasi o'rganadi. Odamlarning bir-biri bilan jamiyatdagi muloqoti ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulqatvorni umumiy psixologiyada o'rganamiz. Shularning hammasini psixologiya o'rganadi va u inson hayotida katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiy Psixologiya
2. Pedagogika. A. Munavvarov tahriri ostida. — T.: «O'qituvchi», 1996.
3. G'aybullayev N., Yodgorov R. Pedagogika. Ma'ruzalar matni —T.: TDPU nashriyoti, 2000.
4. TursunovI.Y., Nishonaliyev U.N. Pedagogika kursi. — T.: «O'qituvchi», 1997.
5. Avliyaqulov.N.X,Musaeva.N.N, Pedagogik texnologiya . – T.: Cho'lpon NMIU,2012y.
6. Ochilova G. Pedagogika. T.: 2005
7. G'oziyev E "Umumiy psixologiya" 1-kitobi Toshkent 2004
8. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro'zieva D.I.Pedagogika. Psixologiya. Darslik. T., 2018 y.